ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA TIBBIY XIZMATLAR SIFATI VA AHOLINING QAMROVINI OSHIRISH

Jumayeva Sora Eshbo'ri qizi

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20279418

"Hech kim zarur tibbiy xizmatlardan foy-
dalanish jarayonida qashshoqlikka tush-
masligi kerak"

Dr. Tedros Adhanom Ghebreyesus

Annotatsiya: Mazkur maqolada sog'liqni saqlash tizimida tibbiy xizmatlar sifati va aholining qamrovini oshirish masalalari universal sog'liqni saqlash qamrovi (Universal Health Coverage – UHC) konsepsiyasi doirasida kompleks tarzda tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimining hozirgi holatini chuqur tahlil qilish, mavjud institutsional va tizimli muammolarni aniqlash hamda xalqaro tajriba asosida samarali rivojlanish yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) va Jahon banki ma'lumotlari asosida UHC indeksining mohiyati, uning asosiy indikatorlari hamda O'zbekistonning ushbu indeks bo'yicha holati o'rganiladi. Shuningdek, Xitoy, Vetnam va Indoneziya tajribasi asosida tezkor o'sish omillari aniqlanib, O'zbekiston uchun optimal rivojlanish strategiyasi ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, majburiy milliy tibbiy sug'urta tizimini to'liq joriy etish UHC indeksini oshirishning eng muhim omili hisoblanadi. Tahlil natijasida sog'liqni saqlash siyosatini takomillashtirish,tibbiy xizmatlar sifati va aholining qamrovini oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: UHC, sog'liqni saqlash tizimi, majburiy sug'urta, tibbiy xizmat sifati, Jahon banki, WHO

Sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi zamonaviy davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi muhim omillardan biridir. World Health Organization tomonidan ilgari surilgan universal sog'liqni saqlash qamrovi (Universal Health Coverage – UHC) konsepsiyasi barcha aholining sifatli tibbiy xizmatlardan moliyaviy qiyinchiliklarsiz foydalanishini ta'minlashni nazarda tutadi[1]. Shu bilan birga Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) BMT ning xalqaro sog'liqni saqlash masalalari uchun ma'sul bo'lgan ixtisoslashgan organi hisoblanadi va u 1948-yil 7-aprelda BMT tomonidan ishlab chiqilgan[2]. So'nggi yillarda O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi " O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5590-son farmoni bilan 2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi[3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi "2022 — 2026-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish to'g'risida"gi PQ-216-son qarori bilan 2022 — 2026-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish bo'yicha CHORA-TADBIRLAR REJASI ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-yanvardagi "Sog'liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-38-son qarori bilan Sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirishning ustuvor

[1] World Health Organization (2023).
Tracking universal health coverage: 2023 global monitoring report. Geneva: WHO.
[2] https://www.worldeggorganisation.com/uz/our-work/industry-representation/world-health-organization-who/
[3] gov.uz/ssv

yo‘nalishlarini amalga oshirish bo‘yicha “YO‘L XARITASI” tasdiqlangan[4]. So‘nggi yillarda tibbiyot sohasining o‘ziga 230 trillion so‘m yo‘naltirildi. Buning hisobiga joylarda 187 ta yangi poliklinika va shifoxona ishga tushdi, 1 ming 244 tasi rekonstruksiya qilinib, jihozlandi. Natijada birlamchi tibbiyot muassasalari quvvati 60 foizga oshib, tibbiy xizmat aholiga ancha yaqinlashdi. Ilgari asosan poytaxtda bajarilgan yuqori texnologik va diagnostika-davolash usullarining 400 dan ortig‘i hududlarda amalga oshirilmoqda. Yuzlab murakkab amaliyotlar viloyat markazlariga, kam invaziv operatsiyalar tuman darajasiga tushirildi[5]. So‘nggi yillarda yurtimiz tibbiyotida ilg‘or texnologiyalar joriy etilib, ta’lim jarayonlariga ham keng tatbiq qilinmoqda. Xususan, uchta oliy ta’lim muassasasi negizida Toshkent davlat tibbiyot universiteti tashkil etildi. Urganch davlat tibbiyot instituti faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Sakkizta tibbiyot oliy ta’lim muassasasi xalqaro akkreditatsiyadan o‘tdi. Bu sohada zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorlash imkoniyatlari yanada kengaydi. Mamlakatimiz bo‘ylab davlat tibbiyot muassasalari zamonaviy axborot-kommunikatsiya jihozlari bilan ta’minlandi, yagona raqamli infratuzilma shakllantirildi. 2024–2025-yillarda 3 mingdan ortiq tibbiyot muassasasi lokal tarmoq bilan ta’minlandi. Minglab yangi kompyuterlar xarid qilinib, texnik baza yangilandi[6]. Shuningdek, “Elektron retsept” tizimi faoliyati yo‘lga qo‘yilishi natijasida ortiqcha dori yozish holatlari 40 foizga kamaydi, dori vositalari aylanmasi shaffoflashdi. Barcha tibbiy ma’lumotlar biometrik himoya ostida saqlanib, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi ta’minlanmoqda[7]. Shu kabi ko’plab islohotlar va faoliyatlar amalga oshirilib, sog’liqni saqlash tizimi keng rivojlantirilib kelinmoqda. Buning natijasida World Health Organization va World Bank ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda universal sog‘liqni saqlash qamrovi (UHC) indeksi 2000-yildagi 56 balldan 2021-yilda 75 ballga yetgan. Bu esa tizimda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini ko‘rsatadi. Biroq, mazkur o‘sish asosan xizmatlar qamrovining kengayishi hisobiga yuz bergan bo‘lib, xizmatlar sifati bilan bog‘liq muammolar hanuz dolzarbligicha qolmoqda. UHC xalqaro indeksi

UHC indeksi 14 ta tracer indikatorlari


№	Yo'nalish	Tracer indikator nomi	Qisqacha mazmuni
	Reproductive, maternal, newborn and child health		
1	Family planning	Zamonaviy kontratseptsiya	Zamonaviy kontratseptsiya bilan qamrov
2	Pregnancy care	Homiladorlik davrida antenatal xizmat	Homiladorlik davrida antenatal xizmat
3	Child immunization	Bolalar emlash qamrovi (DTP3)	Bolalar emlash qamrovi (DTP3)
4	Child treatment	Bolalar kasalliklarini davolash	(pnevmoniya va boshqalar)
	Infectious diseases		
5	Tuberculosis	Sil kasalligini aniqlash va davolash qamrovi	
6	HIV/AIDS	OIV davolash (ART qamrovi)	
7	Malaria	Bezgak profilaktikasi va davolash	
8	Water and sanitation	Toza ichimlik suvi va sanitariya	
	Noncommunicable diseases		
9	Hypertension	Qon bosimini nazorat qilish	
10	Diabetes	Qandli diabetni davolash	
11	Tobacco	Tamaki iste'molini kamaytirish	
	Service capacity and access		
12	Hospital access	Kasalkona xizmatlari qamrovi	
13	Health workforce	Tibbiyot xodimlari soni va mavjudligi	
14	Health security	Sog'liqni saqlash tizimi xavfsizligi va tayyorgarligi	

Manba: WHO Global Health Observatory, SDG 3.8.1 UHC Service Coverage Index

quyidagi 14ta indicator bo’yicha davlatdagi fuqarolarning kerakli sifatli tibbiy xizmatlarga moliyaviy qiyinchiliklarsiz erishishini aniqlab beradigan indeks hisoblanadi[8]. 2025-yilgi JSST va Jahon Banki hisobotiga ko’ra, O’zbekiston bu indeks bo’yicha 110 ta davlat ichida 64-pog’onani egallagan[9]. Indeksni eng yuqori pog’onalarida Kanada,Islandiyqa va Norvegiya davlatlari peshqadam hisoblanadi.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali
[5] https://president.uz/oz/lists/view/8113
[6] http://gov.uz/ssv
[7] https://president.uz/oz/lists/view/8113
[8] https://data.worldbank.org/indicators/Sh-UHC-SCI?locations=UZ

[9] https://data.who.int/indicators/i/3805B1E/9A706FD



[10]

O'zbekiston ham yuqori pog'onalarga chiqishi uchun nimalar qilishi kerak? Buning uchun biz tez fursatda va yaqin yillar ichida yuqori o'ringa ko'tarilgan davlatlarni va ularning qilgan islohotlarini o'rganib, davlatimizda tatbiq etib ko'rishimiz kerak.

2015–2023 YILLARDA UHC INDEKSIDA ENG TEZ O'SGAN TOP-10 DAVLATLAR

№	Davlat	2015 UHC indeksi	2023 UHC indeksi	2021 UHC indeksi	O'sish
1	Xitoy	60	77	77	▲ +17
2	Vetnam	58	75	75	▲ +17
3	Indoneziya	50	67	67	▲ +17
4	Hindiston	45	61	61	▲ +16
5	Bangladesh	47	62	62	▲ +15
6	Efiopiya	34	49	49	▲ +15
7	Zambiya	40	54	54	▲ +14
8	Kambodja	46	60	60	▲ +14
9	Nepal	48	62	62	▲ +14
10	Laos	42	55	55	▲ +13

Manba: WHO / World Bank, SDG 3.8.1 Monnitoring Report
[11]

Quyida yaqin yillar ichida yuqori balga ega bo'lib o'z o'rnini yaxshilagan davlatlarni keltirilgan. Xitoyda qanday islohotlar amalga oshirilganini ko'rib chiqamiz. World Health Organization (WHO) va World Bank hisobotlariga ko'ra, UHC indeksining tez o'sishiga eng katta ta'sir qiladigan omil — aholini moliyaviy himoya qiluvchi milliy sog'liqni saqlash sug'urtasi tizimi hisoblanadi. Xitoyda ham bu tizim 2016-yil joriy etilgan va 95% dan aholi tibbiy sug'urta bilan ta'minlagan shu bilan birga, 1,4 milliard aholini sifatli va arzon tibbiy xizmat bilan ta'minlash maqsad qilingan va amalga oshirilgan, birlamchi tibbiy yordam kuchaytirilgan, qishloq hududlarida klinikalar soni oshirilgan va davlat sog'liqni saqlash

[10] https://www.statista.com/chart/31420/uhc-service-coverage-index-by-country/?srsltid=AfmBOop2Ch-Up3N7IlQclwOntgx5DZ3et8RuZSFfb8ToKrHSUhaH1tWn#:~:text=While%20this%20chart%20only%20reflects%20the%20coverage,hides%20regional%20inequalities%20within%20countries%20and%20communities.
[11] https://data.worldbank.org/indicator/SH_UHC_SCI?locations=UZ

xarajatlari ko'paytirilgan[12]. Va buning natijasida davlatda tibbiy xizmatlardan foydalanish oshdi, kasalxonalarda murojaat qilish osonlashdi va UHC indeksining tez o'sishi ro'y berdi[13].

Agar O'zbekiston ham majburiy tibbiy sug'urtani to'liq joriy qilsa, xizmat qamrovi oshadi, moliyaviy himoya kuchayadi va UHC indeksi yuqorilaydi.Buning natijasida aholi tibbiy xizmatdan qo'rqmay foydalanadi,davolanish xarajatlari kamayadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, O'zbekiston uchun UHC indeksida yuqori natijalarga erishishi uchun shunchaki yangi shifoxonalar qurish yoki tibbiy jihozlar sonini ko'paytirish emas, tibbiy sug'urta mexanizmlarini takomillashtirish, shifokorning ijtimoiy maqomini ko'tarish va har bir fuqaroga profilaktik ko'rik madaniyatini singdirish UHC reytingida O'zbekistonni peshqadamlar qatoriga olib chiqadigan yagona to'g'ri yo'l hisoblanadi. Xitoyda "Katta shifoxona – katta muammo" tamoyili asosida islohot o'tkaziladi. O'zbekistonda birlamchi bo'g'in nufuzini va moddiy bazasini shunday darajaga ko'tarish kerakki, aholi 80% muammosini mahallaning o'zida hal qilsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. http://gov.uz/ssv
2. World Health Organization (2023).Tracking universal health coverage: 2023 global monitoring report.Geneva: WHO.
3. https://www.worldeggorganisation.com/uz/our-work/industry-representation/world-health-organization-who/
4. https://president.uz/oz/lists/view/8113
5. https://data.who.int/indicators/i/3805B1E/9A706FD
6. https://www.statista.com/chart/31420/uhc-service-coverage-index-by-country/?srsltid=AfmBOop2Ch-Up3N7IlQclwOntgx5DZ3et8RuZSFfb8ToKrHSUhaH1tWn#:~:text=While%20this%20chart%20only%20reflects%20the%20coverage,hides%20regional%20inequalities%20within%20countries%20and%20communities.
7. https://data.worldbank.org/indicator/SH_UHC_SCI?locations=UZ
8. WHO Global Monitoring Report, World Bank Health System Reform China.
9. https://srcyrl.suppliermed.com/news/unveiling-the-emerging-trends-in-china-s-healt-71100167.html
10. https://www.thelancet.com/journals/lanpub/article/PIIS2468-2667(23)00254-2/fulltext
11. https://www.universalhealthcoverageday.org/global-heatmap/event/tracking-universal-health-coverage-2025-global-monitoring-report/
12. https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/universal-health-coverage-(uhc)
13. https://www.worldbank.org/en/topic/universalhealthcoverage/publication/2025-global-monitoring-report-gmr
14. https://www.urban.org/sites/default/files/publication/30596/411947-How-Does-the-Quality-of-U-S-Health-Care-Compare-Internationally-.PDF
15. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC10035485/

[12] https://srcyrl.suppliermed.com/news/unveiling-the-emerging-trends-in-china-s-healt-71100167.html#:~:text=Ushbu%20press%2Drelizda%202023%20yilda%20Xitoyda%20sog'liqni%20saqlash,sog'liqni%20saqlash%20yechimlari%20va%20telemeditsina%20xizmatlarining%20o'

[13] https://www.thelancet.com/journals/lanpub/article/PIIS2468-2667(23)00254-2/fulltext